

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 156 (1482), 2025-yil 1-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



QISHLOQ XO‘JALIGIDA AEROKOSMIK TEKNOLOGIYALAR KENG JORIY ETILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-iyul kuni
qishloq xo‘jaligida kosmik ma‘lumotlardan foydalanish va
raqamlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.**

Bu kuni kecha bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishining mantiqiy davomi. Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish masalasi ko‘rib chiqilar ekan, davlatimiz rahbari yerdan unumli foydalanish, samaradorlikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatgan edi.

Buning uchun aniq hisob-kitob va tahlil juda zarur. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan “O‘zbekkosmos” agentligi shunday imkoniyat bermoqda. 2024-yil 14-oktabrdagi Prezident farmoniga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalar joriy etilmoqda.

Jumladan, bu qishloq va suv xo‘jaligidagi haqiqiy holatni, kamchiliklarni ochiq-oydin ko‘rsatib beryapti. Ikki yil mobaynida sohada foydalanilayotgan 4 million gektardan ziyod yerlar kosmik monitoring qilindi. Aniqlanishicha, hisobotlarda ko‘rsatilgan ayrim maydonlarda paxta ekilmagan, ba‘zan esa zaxiradagi yoki egasi noma‘lum yerlarga ekilgan.

Shu bois, davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarning maqsadli ishlatilishini masofaviy monitoring qiladigan tizim yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligidan kelib chiqib, yurtimizda kam suv talab qiladigan yangi navlar va agrotexnologiyaga o‘tilmoqda. Lekin ekinlarni sug‘orishda suv sarfi me‘yori hozirgi haqiqatdagi talabga javob bermasligi ko‘rsatib o‘tildi. Gidromodul rayonlashtirish yondashuvi ham eskirgan. Oqibatda kanallar oxirida joylashgan 3 mingdan ziyod fermerga suv yetib bormayapti.

Qishloq va suv xo‘jaligi tizimidagi ilmiy institutlarni jalb qilgan holda sug‘orish me‘yori va gidromodul rayonlashtirishni to‘liq yangilash vazifasi qo‘yildi.

Fermerlar sarflayotgan suvning haligacha aniq hisobi yo‘qligi qayd etilib, buning barcha bosqichlarini raqamlashtirish, suvning konturma-kontur hisobini yuritish zarurligi ta‘kidlandi.

Suv omborlari sig‘imi ham loyihaviy quvvati bo‘yicha hisoblanib kelinar edi. So‘nggi ikki yilda 60 ta yirik suv ombori ilk bor batimetrik tahlildan o‘tkazildi. Loyqa cho‘kkani sababli ayrimlarining sig‘imi kamaygani aniqlandi.

Shu bois, barcha suv omborlariga “aqlli” hisoblagichlar o‘rnatib, suv miqdorini onlayn kuzatish, ulardagi loyqani kamaytirish vazifalari ko‘rsatib o‘tildi.

— Yer bilan suv qishloq xo‘jaligimiz taqdirini hal qiluvchi masala, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda sohani raqamlashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Hozir fermerlar yer, kredit, subsidiya va agroxizmatlar bo‘yicha 30 dan ortiq platformadan foydalanyapti. Buni osonlashtirish uchun ular birlashtirilib, “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasi ishga tushiriladi.

Endi dalasiga nima ekishni fermerning o‘zi hal qiladi. Buni platformaga ham uning o‘zi kiritadi. Natijada asosiy, takroriy va to‘qsonbosti ekinlar miqdori oldindan ko‘rinadi. Bu oziq-ovqat xavfsizligi, narx-navo barqarorligi va dehqonlarning daromadida juda muhim.

Bosh vazir o‘rinbosari J.Qo‘chqorov boshchiligidagi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha komissiya tuzilishi belgilandi. Yetishmayotgan mahsulotni ko‘paytirish uchun imtiyozli kredit va subsidiya beriladi.

Sohada uchuvchisiz apparatlardan foydalanish ham rejalashtirilmoqda. Kuzda 100 dan ziyod zamonaviy dron olib kelinadi. Mutasaddilarga xususiy sektorni jalb etib, fermerlarga dronlar yordamida xizmatlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Somonpoyalarni yoqishga chek qo‘yishning qonuniy asoslarini yaratish zarurligi aytiladi.

Kosmik tadqiqotlarda qurilish, kadastr, noruda konlari, o‘rmon va yaylov yerlari bo‘yicha ham tahlillar borligi ta‘kidlanib, vazirlar va hokimlarga ulami o‘rganib, rejalar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

O‘zA



Iyul sarhisobi

Xalqimiz ahilligi va g‘ayrat-shijoati, xavfsizligi va tinchligi — bebaho boylik. Davlatimiz rahbarining iyul oyidagi faoliyatini, mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarni kuzatish asnosida chiqargan ilk xulosamiz shu bo‘ldi. Xorij va qator ichki hududlarga tashrif, davlat va hukumat rahbarlari bilan uchrashuvlar, nufuzli delegatsiyalar qabuli, mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiyot rivoji, xalqimizning ahilligi, g‘ayrat-shijoati, xavfsizligi, tinchligi yo‘lidagi taqdimot va videoselektor yig‘ilishlarida ana shu ezgu g‘oya bor bastini ko‘rsatib turdi.

BOSH MAQSAD — XALQIMIZ YAYRAB ISHLAYDIGAN VA YAYRAB YASHAYDIGAN YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISH

I Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroridan boshlash maqsadga muvofiq, nazarimda, 10-iyulda imzolangan mazkur hujjatda xalqimizning eng ulug‘, eng aziz bayramini yangi O‘zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro‘-e‘tiboriga munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlash, yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish belgilandi.

Bayram tantanalari “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etishida ham katta ma‘no-mazmun bor. Qarorga muvofiq, ushbu bayramni

munosib nishonlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligidagi respublika komissiyasi tuzildi va uning tarkibi tasdiqlandi.

Bayram arafasida joylarda mustaqillikning yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta‘minlash borasidagi ahamiyatiga bag‘ishlangan ma‘naviy-ma‘rifiy anjumanlar, ochiq mulqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, umumxalq sayillari, madaniyat va sport tadbirlari tashkil etiladi.

O‘zbekiston toбора inson qadri, uning huquq va manfaatlari ulug‘lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, kambag‘allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo‘llab-quvvatlash, bandlikni ta‘minlash, zamonaviy ish o‘rinlarini ko‘paytirish bo‘yicha davlat dasturlari katta ijobiy natijalar berayotganini har bir inson hayoti misolida

ko‘rib, his etib turibdi. Yurtdoshlarimiz tafakkuridagi o‘zgarishlar, yangilanish jarayonlari tashkil etilajak bayram dasturlarida o‘z ifodasini topadi.

Mustaqillik — uzoq mashaqqatlar evaziga qo‘lga kiritilgan ne‘mat, ota-bobolar orzusi, kelajak avlodlar iftixori, millat zehniyatidagi qadriyat. Bayramning ma‘no-mazmuni, qadr-qimmat ham yildan yilga ortib bormoqda. Boisi, uni mustahkamlashda, mustaqil davlatimizni yanada yuksaltirishda shu yurtda yashayotgan har bir insonning munosib hissasi bor.

Yana shu fursatda ijrosi bilan mukammallik kasb etadigan qonun ustuvorligini ta‘minlash, asosiy, xalqimiz yayrab ishlaydigan va yayrab yashaydigan yangi O‘zbekistonni qurish maqsadiga qaratilgan sa‘y-harakatlarning huquqiy asosini mustahkamlash yo‘lida muhim hujjatlar imzolandi.

Prezidentimizning “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, “Davlat oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoyishi, “Mo‘g‘ulistoniga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari mazmun-mohiyatiga ko‘ra, bu boradagi ishlarga yangi istiqbollar ochadi.

Davomi 3-beta

Bir o‘lkaki...

XALQCHIL SIYOSATNING MOHIYATIDA INSON QADRI MUJASSAM

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar markazida inson turibdi. Bu shunchaki shior emas, u tom ma‘noda xalqimiz hayotida, tafakkuridagi o‘zgarishlarda, jamiyatdagi munosabatlarda ifodasini topayotgan haqiqat. Bunday qarash davlat rahbari ilgari surayotgan tashabbus va g‘oyalar, davlat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylangan. Axir islohotlar nafaqat yangi qonun va qarorlarda, balki har bir inson hayotidagi tub o‘zgarishlarda amaliy ifodasini topayotgani bejiz emas.



Shu o‘rinda o‘tmishning og‘riqli sahifalarini eslasak. Qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilgan fuqarolar uchun turmush qanchalik og‘ir kechganini inkor etib bo‘lmaydi. Bir paytlar qishning qahratonida kekka ham, yosh ham, xotin-qizlaru o‘qituvchi, talabalar ham paxta terimiga chiqardi. Ta‘limdan, inson huquqidan, tinch hayotdan voz kechgandek manzara hukmron edi. Bu jarayonning qanchalik insofsiz va g‘ayrinsofiy ekanini ko‘p yillar davomida tan olinmadi. Hozir buning sabablarini muhokama qilmoqchi emasmiz. Ammo haqiqat shundaki, Prezidentimiz rahbarligida ushbu adolatsizlikka chek qo‘yildi. Davlatimiz rahbari inson huquqi, sha‘ni, qadri degan tushunchalarni amaliy siyosatga aylantirib, ta‘lim sohasini o‘z egasiga, ya‘ni o‘qituvchi va o‘quvchiga qaytardi.

Davomi 2-beta

Munosabat

ASAKA TAJRIBASI

“ISLOHOTLAR SHTABI” – HUDUDIY
RIVOJLANISHNING YANGI MEXANIZMI

Bugun hududlarni barqaror va muvozanatli rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli o‘sishi va farovonligini ta‘minlashda hal qiluvchi omildir. Mazkur amaliy jarayon investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, aholi bandligini oshirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ham mustahkam zamin yaratadi.



So‘nggi yillarda har bir hududning o‘ziga xos salohiyatini ishga solish orqali barcha sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlari ochish, iqtisodiyot tarmoqlarining

faolligini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Davomi 2-beta

Uyg‘oq fikr

KITOBXONLAR QALBIGA

YANGI YO‘LLAR, YANGI USULLAR TOPAYLIK

6

Nuqtayi nazar

YURTIMIZ TURIZMI ISTIQBOLLARI

XORIJ NASHRLARI E‘TIROFIGA NIMALAR SABAB BO‘LMOQDA?

5

Azim JABBOROV,
Karmana tumani Nuroniylar
jamoatchilik kengashi faoli

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar ham islohotlarning yorqin ifodasidir. Yerning haqiqiy egasi yuzaga chiqdi, resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, fermerning erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy va iqtisodiy asoslar yaratildi. Agrar sohadagi islohot qishloqda yashayotgan fuqarolar hayot tarziga, dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy samara, balki inson qadriga e'tiborning amaliy ko'rinishini ham ifodalamoqda.

Bir necha yil Karmana tumanidagi Yanglariq mahallasida ishladim. Shu bois, mahalla institutidagi islohotlarni o'z ko'zim bilan kuzatish, sohani ichkaridan bilish baxtiga erishdim. Mazkur tizim chuqur qayta ko'rib chiqildi. Mahalla milliy davlat boshqaruvi modelining ajralmas qismiga aylandi. U endi faqat masalalarni hal etish maydoni emas, balki jamoatchilikni safarbar etuvchi, islohotlar



Bugun Navoiy viloyatining shahar va tumanlarida ana shunday kompleks asosida tiklanayotgan uy-joylar aholining uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilmoqda, desak xato bo'lmaydi. Yashash obyekti yonida maktab, bog'cha, avtoturargohlar, bolalar maydonchalari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari, bozor hamda tamaddixonalar qurib berilmoqda.

Bugun Navoiy viloyatidagi o'zgarishlar ham aynan shu rivojlanish sinovidan muvaffaqiyatli o'tayotganini tasdiqlaydi. Masalan, “Afrosiyob” poyezdining Navoiyda to'xtashi, Toshkent – Navoiy aviaqatnovining kunlik yo'lga qo'yilishi, yo'qolib ketgan jamoat transporti tizimi qayta tiklanib, 60 ta zamonaviy avtobus harakatga tushirilgani xalq uchun faqat qulaylik emas, e'tibor va qadr ramzi sifatida qabul qilinmoqda. Bu, o'z navbatida, aholining davlatga nisbatan ishonchini yanada yuksaltirmoqda.

ruhini jonlantiruvchi ijtimoiy hujayra sifatida shakllanmoqda. “Mahalla yetiligi” g'oyasi orqali mahallaning davlat bilan xalq o'rtasidagi ko'priksifatidagi o'rni yanada mustahkamlanmoqda.

Ayni vaqtda mahallalar va ularda faoliyat yuritayotgan mas'ullarga e'tibor ham yanada kuchaydi. Mahalla xalq bilan davlat o'rtasidagi tirik ko'priksifatida fuqarolar hayotidagi muhim masalalarni yechishda markaziy bo'g'inga aylandi. Ilgari mahalla raisi ko'p hollarda biror masalaga ijobiy yechim topa olmasdi. Imkoni yetmasdi. Yangi tizim, “mahalla yetiligi”da har bir sohaning mas'uli, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va soliqchi yakdli faoliyat yuritmoqda. Bu nafaqat mahalla rahbarlariga yetarli yordam bo'ldi, balki barcha muammolarning tizimli hal qilinishiga zamin yaratyapti.

Mahallalarning moddiy-texnik bazasi tubdan yaxshilandi. Bunyodkorlik jadal tus oldi. Ko'plab mahallalarda yangi binolar, xizmat va ko'ngilochar maskanlar barpo etildi. Ushbu o'zgarishlar ortida yangi O'zbekistonda mahallaga e'tibor, ijtimoiy va ma'naviy baho mujassam. Ya'ni mahalla endi islohotlarning birinchi halqasi va amaldagi manbaiga aylandi.

Bunday yangilanishlar aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bir paytlar uy-joy masalasi og'riqli muammo edi. Hozir zamonaviy qurilish siyosati asosida qishloq va shaharlarda shinam, arzon va infratuzilmasi rivojlangan turar joylar qad rostlamoqda. Bunday yondashuv aholiga nafaqat uy-joy, balki yashash madaniyati, hayot sifati yangilanishini taqdim etmoqda. Shahar qiyofasi qishloqlarga ko'chib o'tmoqda.

Bularning bari xalq uchun, inson uchun, uning qadri va farovon hayoti uchun qilinmoqda. Bu boradagi barcha tashabbuslarda inson hayoti, oila baxti, mahalla obodligi eng oliy qadriyat sifatida talqin etilayotgani yaqqol ko'rinadi. Inson qadriga tayanilgan siyosiy-falsafiy tizim shakllanmoqdaki, bu faqat mamlakat ichida emas, balki xalqaro hamjamiyatda ham yuksak baholanmoqda.

Kun mavzusi

Shavkat TO'RAYEV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i

Konstitutsiya va qonunlarimizda barcha fuqarolar millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq va erkinlikka ega ekani belgilab qo'yilgan. Millatlar va konfessiyalararo totuvlik, bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston aholisining milliy-etnik tarkibi juda xilma-xil. Bugun yurtimizda 130 dan ziyod millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv istiqomat qilmoqda. 157 ta milliy-madaniy markaz va 42 do'stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda. Bu esa tabiiy ravishda ko'p qirrali madaniyatlarni, tillar, urf-odat va qadriyatlarini mujassam etgan.

So'nggi sakkiz yilda mamlakatimizda mintaqalararo munosabatlarni takomillashtirish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Prezidentimizning “2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonda rivojlantirish strategiyasi

to'g'risida”gi farmonida milliy-madaniy markazlarni qo'llab-quvvatlash, huquqiy maqomini mustahkamlash, yosh avlodni bag'rikenglik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalar etib belgilandi.

O'zbekiston ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyatni oqilona boshqarish borasida ulkan tajribaga ega. Bu tajribani xalqaro tashkilotlar va davlatlar ham o'rganib bormoqda. Yurtimizda totuvlik, bag'rikenglik muhiti qaror topishi, avvalo, turli millat vakillari o'rtasida hamkorlik, birdamlik va hamjihatlik shakllanishiga zamin yaratadi. Mazkur omil

yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qiladi. Bugun davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati tufayli qo'shni davlatlar bilan har tomonlama, o'zaro manfaatli aloqalar tobora mustahkamlanmoqda.

Jumladan, shu yil martda O'zbekiston — Qirg'iziston — Tojikiston chegaralari o'zaro tutashgan nuqtada “Do'stlik” stelsi o'rnatilgani qo'shinchilik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining yana bir yorqin isboti.

Ayni kunlarda mamlakatimizda 30-iyul — Xalqlar do'stligi kuni keng nishonlanmoqda. Sana munosabati bilan davlatimiz rahbari bayram tabrigi yo'lladi. Unda, jumladan, bunday deyilgan: “Mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikning muhim omili bo'lgan

Yangi O'zbekistondagi bunday keng qamrovli qurilish va ijtimoiy infratuzilma rivoji, avvalo, inson, uning hayoti va farovonligi uchun qilinmoqda. Bunday yangilanishlar xalqimizning hayotga munosabati, ertangi kunga ishonchi mustahkamlanishda beqiyos o'rin tutadi.

So'nggi to'qqiz yilda turli sohalarda kechayotgan islohotlar haqida soatlab gapirsa arziydi. Chunki bu o'zgarishlar har bir hududda, har bir fuqaro hayotida, kayfiyatida, hatto ko'zidagi shukronalikda namoyon bo'lmoqda.

Bugun Navoiy viloyatidagi o'zgarishlar ham aynan shu rivojlanish sinovidan muvaffaqiyatli o'tayotganini tasdiqlaydi. Masalan, “Afrosiyob” poyezdining Navoiyda to'xtashi, Toshkent — Navoiy aviaqatnovining kunlik yo'lga qo'yilishi, yo'qolib ketgan jamoat transporti tizimi qayta tiklanib, 60 ta zamonaviy avtobus harakatga tushirilgani xalq uchun faqat qulaylik emas, e'tibor va qadr ramzi sifatida qabul qilinmoqda. Bu, o'z navbatida, aholining davlatga nisbatan ishonchini yanada yuksaltirmoqda.

Olis hududlarda ham keng qamrovli islohotlar izchil davom etayotir. G'ozg'on xalqining ko'p yillik orzu-istaklari ro'yogba chiqib, 2020-yilda mazkur hududga shahar maqomi berildi. Natijada 78,6 kilometr ichki yo'l, 22,5 kilometr ichimlik suv, 51 kilometr elektr va 20 kilometr gaz tarmog'i barpo etildi. Maktabgacha ta'lim qamrovi 35,1 foizdan 100 foizga yetkazildi. Asosiysi, ishsizlik muammosiga butunlay barham berildi.

Bu faqat statistika emas. Islohotlarning amaldagi samarasi, har bir inson uchun qilinayotgan mehr va “inson qadri” degan ulug' g'oyaga sodiqlikning yorqin ifodasidir.

Albatta, farovon turmush oila xotirjamligi, barqarorlik va kelajakka ishonchning asosidir. Shu ma'noda, bugungi xayrli o'zgarishlar faqat infratuzilma yoki statistikadan iborat emas, balki har bir oila hayotida sezilayotgan moddiy va ma'naviy yuksalishdir. Aynan shu jihatdan xalq turmushini yaxshilash, munosib sharoit yaratish, daromad manbalarini kengaytirish, kambag'allikni qisqartirish kabi masalalar islohotlar markazida turibdi.

“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi bu boradagi ulkan qadamdir. Bu jarayonga nuroniylarimiz jalb etilishi, ularning hayotiy tajribasi va xalq orasidagi nufuzidan samarali



Ushbu massivda 2022-2026-yillarda 5 qavatli, 1080 ta xonadonli 54 ta turar joy binosi qurilishi rejalashtirilgan. Dastlabki bosqichda 2022-yilda 5 qavatli, 400 xonadonli 20 ta uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Loyihaning 2023-2026-yilga mo'ljallangan bosqichida belgilangan bunyodkorlik ishlari jadallik bilan davom etmoqda. Shuningdek, ushbu bosqichda 1056 o'rinni bitta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 120 o'rinni maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda 100 qatnovli o'limiy poliklinika binosi barpo etildi. E'tiborlisi, xonadonlar, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarga imtiyozli yoki subsidiya asosida taqdim etilmoqda.

foydalanilayotgani e'tiborga sazovor. Ular tomonidan aholi o'rtasida suhbatlar, tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilib, kambag'allikning sabablari, oilaviy muammolar, hayot tarzi bilan bog'liq jihatlar o'rganilmoqda. Bunday ijobiy o'zgarishlar jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, barqarorlikni mustahkamlash, xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli muloqotni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xalqchil siyosatning mazmun-mohiyati hayotimizdagi real yangilanishlarda namoyon bo'lmoqda. Natijada yangi O'zbekiston degan tushuncha xalqning ko'nglidan joy olib, hayotiy haqiqatiga aylanib boryapti.



ASAKA TAJRIBASI

“ISLOHOTLAR SHTABI” – HUDUDIY RIVOJLANISHNING YANGI MEXANIZMI



Nasibullo MO'MINOV,
Asaka tumani hokimi

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning 2024-yil 18-noyabrda tegishli qarori bilan Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari belgilangan edi. Jumladan, bu yil viloyatga 3,1 milliard dollar investitsiya olib kirish, 1,5 milliard dollarlik mahsulot eksport qilish, 305 ming fuqaroning bandligini ta'minlash, 32 mingdan ziyod oilani kambag'allikdan chiqarish ko'zda tutilgan. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi Andijon viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar yuzasidan bo'lib o'tgan taqdimotda bu boradagi amaliy ishlar haqida axborot berildi.

Yil boshidan buyon Andijon viloyatida 1 milliard dollarlik yangi quvvatlar, 344 ta savdo va servis majmuasi ishga tushirilgan. Yana 2,5 milliard dollarlik loyihalar boshlangan. O'tgan olti oyda 850 million dollarlik investitsiya jalb etilib, eksport qiymati 465 million dollarni tashkil etgan.

2025-yilda respublika dasturlari doirasida muayyan miqdordagi mablag' iqtisod qilinib, 87 ta mahallada 132,7 milliard so'mlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 5 ta maktabni kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, 7 ta bog'chani ta'mirlash va yangidan qurish, 72 kilometr ichki yo'lni asfaltlash, 5 ta shifoxona va poliklinika kapital ta'mirlash, 13 ta obodonlashtirish va 4 ta suv xo'jaligi obyekti yaxshilash imkoni vujudga keldi.

Prezidentimiz shu yil aprelda viloyatimizga tashrif davomida belgilab bergan vazifalar hududning rivojlanish sur'atini kuchaytirdi. Yaqinda ilmiy ekspertlar, faol tadbirkorlar ishtirokida “Islohotlar shtabi” tuzildi va iqtisodiy-ijtimoiy sohalarga oid yangi takliflar ishlab chiqildi.

Xususan, 40 million dollarlik sarmoya evaziga Germaniya, Turkiya va Yaponiyadan robot texnologiyasi olib

kelib, innovatsion klinika barpo etish rejalashtirilgan. Shuningdek, elchilar yordami bilan agroklastar tashkil etishga Italiyadan 20 million yevro, zamonaviy agrologistika majmuasi barpo etishga Germaniyadan 25 million yevro jalb etish mo'ljallangan. Shu bilan birga, Xonobod shahri, Xo'jaobod va Buloqboshi tumanlarida sayyohlik maskanlari barpo etish bo'yicha 30 dan ziyod tashabbus bildirilgan. Umuman, 1 milliard 100 million dollarlik qo'shimcha loyihalar shakllantirilgan. Ularni hayotga tatbiq etish natijasida 22 ming ish o'rni, qo'shimcha 200 million dollarlik xizmat va mahsulot eksporti imkoniyati ochildi.

Belgilab berilgan strategik vazifalarni izchil amalga oshirish uchun yangi o'sish nuqtalarini muttasil aniqlash va rag'batlantirib turish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda joylarda tashkil etilgan “Islohotlar shtabi” hududiy rivojlanishning yangi mexanizmi sifatida maydonga chiqyapti. Bu shtab a'zolari joylardagi vaziyatni, haqiqiy holatni chuqur tahlil qilaypti. Muammolarni mutasaddilarga tezkor yetkazish bilan birga, joyida hal etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqmoqda.

Eng muhimi, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy etilgan bu tizim islohotlar samarasini oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, joylarda iqtisodiy faollikni jonlantirish borasida asosiy omilga aylandi.

Shtablar bugun hisobotlar bilan emas, balki real natijalar bilan ishlayapti. Shu ma'noda, “Islohotlar shtabi” Prezidentimiz boshlab bergan o'zgarishlar ko'lamini yanada kengaytirish markaziga aylandi. U orqali davlat boshqaruvi va hududiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy aloqalar kuchaydi, aholining islohotlarga ishonchi mustahkamlandi.



va bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalikning muhim omilidir.

Yurtimiz bo'ylab har yili o'tkazilayotgan “Do'stlik” festivallari millatlar o'rtasidagi hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu tadbirlar xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va ishonchni kuchaytirib, tinchlik, barqarorlik, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz tabrigida qayd etilganidek, Xalqlar do'stligi kuni ham xalqimizning tinchlik, do'stlik va ezigulik g'oyalari mujassam bo'lgan boy madaniyati, urf-odat hamda an'analarni yaqqol namoyish etish uchun yana bir katta imkoniyat.

Bu tadbirlar faqat bir kunlik madaniy tadbir emas, uning ortida mustahkam siyosiy iroda, ijtimoiy barqarorlikka intilish, bag'rikenglikni milliy qadriyat darajasiga ko'tarishga bo'lgan azmu shijoat mujassam.

Millatlar o'rtasidagi ishonch va do'stlikning qiymati aynan mana shunday amaliy tadbirlarda namoyon bo'ladi va bu orqali O'zbekiston tajribasi nafaqat mintaq, balki butun dunyoda millatlararo totuvlikning ilg'or modeli sifatida namoyon bo'lib bormoqda.

So'nggi sakkiz yilda mamlakatimizda mintaqalararo munosabatlarni takomillashtirish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Prezidentimizning “2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi farmonida milliy-madaniy markazlarni qo'llab-quvvatlash, huquqiy maqomini mustahkamlash, yosh avlodni bag'rikenglik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalar etib belgilandi.

millatlararo munosabatlarni rivojlantirishni biz yurtimizda demokratik huquqiy davlat hamda erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab oldik va bu borada ulkan ishlarni amalga oshirib kelmoqdami.

Sana munosabati bilan o'tkaziladigan

festivallar, davra suhbatlari, ijodiy muloqotlar, ko'rgazmalar, xalqaro konferensiya va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar Mustaqillik bayrami tantanalariga ulanib ketadi. Bu esa “O'zbekiston — umumiy uyimiz” degan ezgu g'oya hukm surayotgan jamiyatimizda millatlararo totuvlik



BOSH MAQSAD - XALQIMIZ YAYRAB ISHLAYDIGAN VA YAYRAB YASHAYDIGAN YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISH



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

II

Davlatimiz siyosatida olg‘a tashlanajak har bir katta qadam, qabul qilinadigan har bir muhim qaror oldidan imkoniyatlar chamlalanishi, sharoitlar yetilishi uchun zamin hozirlanishi, rejalar muvofiq qilinishi katta ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, kun-kunora, ba’zan bir kunda 2-3 ta turli taqdimot bilan tanishish davlatimiz rahbari faoliyatining ajralmas qismiga aylangan.

Oyning ilk kuni raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va telekommunikatsiya sohalaridagi rejalar taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Yurtimizda raqamli texnologiyalar rivoji uchun yaratilgan keng imkoniyatlar katta natijalar olib kelgani, IT park rezidentlari 2800 dan oshib, xorijiy kompaniyalar 752 taga yetgani e’tirof etildi. Qayd etilishicha, oxirgi 5 yilda soha eksporti 170 million dollardan 1 milliard dollarga yaqinlashdi. Internet tezligi 7 barobar, mobil internet esa 4,5 barobar oshdi. O‘tgan yili sohadagi startaplarga 70 million dollar venchur investitsiya kiritildi.

Natijada “Global startaplar indeksi” reytingida O‘zbekiston 12 pog‘ona yuqorilab, “TOP-100”likka kirdi. O‘tgan yili “Sun’iy intellektga tayyorlik” xalqaro indeksi yurtimiz 17 pog‘ona ko‘tarilib, Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston telekommunikatsiya sohasining o‘sish sur’atlari bo‘yicha MDH mamlakatlari reytingida birinchi o‘ringa ko‘tarildi.

Shuningdek, Prezidentimiz Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Joriy yil 13-fevraldagi videoselektor yig‘ilishida yurtimizda olimpiya harakatini yanada rivojlantirish, kelgusidagi musobaqalarga puxta hozirlik ko‘rish vazifasi qo‘yilgandi. Shunga muvofiq, 2028-yilda AQSHning Los-Anjeles shahrida bo‘ladigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik bo‘yicha qaror loyihasi ishlab chiqildi.

Sohadagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qo‘mitasining 14 ta hududiy bo‘limi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari olimpiya harakatini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus vakili bo‘ladi. Har bir hududga Sport vazirligi va Olimpiya qo‘mitasidan mas’ullar birlashtirildi. Asosiy maqsad faqatgina Olimpiada emas, doimiy va mustahkam zamin yaratishdir.

Endi boshqa taqdimotlar mavzusi, yo‘nalishiga ahamiyat qarasak. Tasviriya va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirishga oid qaror loyihasi haqida axborot, mahallada jinoyatchilikni jilovlash va qonun ustuvorligini ta’minlash, neft-gaz sohasida xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar hamda kush-qush faoliyatiga tayyorgarlik, Hizobi palatasining mavsumiy hamda ijro tizimini takomillashtirish, Andijon viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar yuzasidan taqdimot, aholi bandligini ta’minlash va kasbiy ta’lim tizimidagi yangi yondashuvlarga oid taqdimotlar va h.k.

Muhim va ulkan ahamiyatga ega taqdimotlar mavzusi va ko‘lamidan ham ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizdagi islohotlarni keng jabhada va birdek yuqori sur’atda davom ettirish, bu orqali yuqori samaralarga erishish maqsadi ustuvor.

Darvoqe, yana ikki taqdimot borki, ularda uzviylik aks etgani uchun alohida to‘xtalishga qaror qildik. Gap shundaki, Prezidentimiz 7-iyul kuni Jizzax viloyatida islohotlar natijadorligi, hududlardagi ishlarning borishi va aholini qiyinatayotgan masalalar hal etilishi va oradan bir kun o‘tib esa Toshkent hamda Yangi Toshkent shahri uchun “yechimlar atlas” taqdimoti bilan tanishdi.

Birinchi taqdimot yuzasidan aytish mumkinki, o‘tgan yil 31-dekabrda Prezidentning Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha qarori qabul qilinib, zarur masalalar hal etib berilgan edi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tashabbusiga muvofiq, viloyatda mutasaddilar, soha mutaxassislari va yetakchi tadbirkorlardan iborat “islohotlar shtabi” tuzildi.

Yig‘ilishda mazkur shtab tomonidan tay-

yorlangan yangi loyihalar taqdimot qilindi. Unga ko‘ra, umumiy qiymati 520 million dollarlik 200 ta loyiha shakllantirildi. Ularning natijasida 12 mingta ish o‘rni, byudjetga qo‘shimcha 120 milliard so‘m tushum, 100 million dollarlik eksport imkoniyati yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz loyihalarning iqtisodiy asosi va bozor talabi bilan qiziqdi. Hokimlar va “islohotlar shtabi” birgalikda ishlab, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va xizmat sohalarida “katta sakrash” qilishi kerakligi ta’kidlandi.

Ikkinchi taqdimotda mamlakatimizning iqtisodiy rivoji poytaxtimiz qiyofasida namoyon bo‘lishi, hududni muvozanatli rivojlantirish maqsadida Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan bosh rejasi qabul qilingani, unda shaharning qurilish rejaları, muhandislik va yo‘l-transport infratuzilmasi, muhofaza hududlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar belgilangani urg‘ulandi.

“Yechimlar atlas” ushbu bosh rejaning mantiqiy davomi bo‘lib, unda shaharning tashqi qiyofasi, ko‘chalar muhiti bo‘yicha umumiy talablar qayd etilgan. Bu katalog-ma’lumotnoma shahar muhitini loyihalashda barqaror rivojlanish maqsadlari hamda milliy koloritni tatbiq etishga xizmat qiladi. Uyg‘un va ekologik toza maskanlarni yaratishga ko‘maklashib, aholining hayot sifatini yaxshilaydi.

Taqdimotda ushbu talablarning mazmun-mohiyati va undan kelib chiqadigan vazifalar ko‘rib chiqildi. Shaharning o‘ziga xosligini saqlagan holda qiyofasini yanada yaxshilash, yo‘l bo‘ylarini obodonlashtirish, turmush madaniyatini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

III

Ana endi ikki taqdimotda uzviylik aks etgan degan yuqoridagi fikrimizni izohlash fursati keldi. Yana davlatimiz siyosatida olg‘a tashlanajak har bir katta qadam, qabul qilinadigan har bir muhim qaror oldidan imkoniyatlar chamlalanishi, sharoitlar yetilishi uchun zamin hozirlanishi, rejalar muvofiq qilinishi borasida ham mulohaza qilgan edik.

O‘sha gaplarimiz isboti davlatimiz rahbarining hududlarga, jumladan, Jizzax viloyatiga tashrifi va Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, aholining turmush sharoitlari, sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishuvi barobarida yana bir bor tasdig‘ini topdi.



Davlatimiz rahbari 22-iyul kuni Jizzaxga tashrifi davomida viloyatda amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. “Yagona darcha” tamoyili asosida qishloq xo‘jaligi xizmatlarini bitta joyga jamlagan agromarkaz tashkil etildi. Hudud kartoshkachilikni rivojlantirishga zamin qilib olinmoqda. Bugungi kunda Zomin ilmiy tajriba stansiyasida xorijiy va mahalliy seleksiyaga mansub 12 ta nav birlamchi urug‘chiligi yo‘lga qo‘yildi.

Jizzaxning turfa tabiati, tog‘li va cho‘l hududlari yilning to‘rt faslida ham sayohat qilish imkonini beradi. “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi, Zomin aeroporti va yangi yo‘llar bu imkoniyatlarni kengaytirdi. Yirik 6 ta kanal bo‘yida sayilgohlar tashkil qilindi. Endi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi qirg‘oq bo‘yida ham zamonaviy turizm markazi barpo etiladi.

—Tumanlarga sanoatni olib kirib, odamlarni ishli qilishga harakat qilyapmiz. Ilgari dasht bo‘lgan joylarda zamonaviy korxonalar paydo bo‘lyapti. Odamlarimiz hunaridan, tomorqasidan ham daromad topyapti. Lekin bu bugungi natija. Yangi avlod yetishib kelyapti, yoshlarimizning bilimi, talabi oshib boryapti. Ularning ishlashi, yaxshi yashashi uchun hozirdan zamin yaratishimiz kerak. Agar imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanilmasa, Zomin tumani ishsizlikdan xoli hudud bo‘la oladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz poytaxtning Shayxontohur va Chilonzor tumanlarida bo‘ldi. Har ikki tumanni bog‘lab turadigan Bunyodkor ko‘chasida san’at va madaniyat maskanlari, turli idoralar, ko‘p qavatli uylar, supermarket va restoranlar joylashgan. Bu salohiyatdan foydalanib,



uning 1,5 kilometr qismi xizmat ko‘rsatish va gastroturizm ko‘chasiga aylantirildi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari bilan birga bu yerdagi sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Ko‘chaga yondosh hududdagi Kamolon, Yangi Kamolon va Kamolon darvoza mahallarida bo‘ldi.

Masalan, Yangi Kamolon mahallasida 4600 dan ziyod aholi yashaydi. 60 dan ortiq savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchasida mahalla yoshlari ish bilan band. Bu yil hunarmandlar maskani, dala mahsulotlari va qandolatchilik do‘konlari, novvoyxona tashkil etildi, xususiy tibbiyot punkti ochildi. Natijada mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi. Mahalla ayvonida aholi bilan samimiy suhbat bo‘ldi.

—So‘nggi yillarda ko‘p korxonalar ochildi, iqtisodiyot o‘syapti. Shu bilan birga, yoshlarimiz ham yetishib kelyapti. Ularning ta’lim-tarbiyasi, sog‘lig‘i, ish o‘rinlarini hozirdan o‘ylashimiz kerak. Shuning uchun bu yil Toshkent shahriga 8 milliard dollar investitsiya olib kelyapmiz. Buning hisobidan Shayxontohurda ham yangi-yangi ish joylari, ta’lim maskanlari, infratuzilma inshootlari bo‘ladi, — dedi Prezident.

Mamlakatimizda ijtimoiy davlat, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor. Ushbu qadriyatlar asosida barcha hududlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ochilib, mehr va ko‘mak

xavfsizligini ta’minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muvofiqasiga bag‘ishlandi.

Inson hayoti, xavfsizligi bosh omil ekanini urg‘ulangan muloqotda ta’kidlanganidek, onlayn murojaat tizimi ishga tushib, yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalariga murojaat qiluvchilar soni 50 foiz kamaydi. 3,5 mingga yaqin xodim elektron planshet va bodikamera bilan ta’minlandi. Qoidabuzarliklarni sun’iy intellekt asosida saralash va qaror chiqarish amaliyoti joriy qilindi. Shaharlarda jamoat transporti uchun maxsus yo‘laklar ajratildi.

Sohada hali dolzarb masalalar ko‘p. Birinchi navbatdagi — yo‘l-transport hodisalari. O‘tgan yili 9364 ta shunday hodisa sodir bo‘lgan. Ularda qariyb 9 ming fuqaro jarohat olgan. Achinarlisi, 2203 odam halok bo‘ldi.

Harakat xavfsizligi, eng avvalo, yo‘llar holati va qayilgiligiga bog‘liq. Ko‘plab tumanlarda yo‘l infratuzilmasi yaxshilab, avtohalokatlar ehtimoli kamaytirilgan. Lekin 20 ta hududda yo‘l-transport hodisalari soni yuqorilgichiga qolmoqda. Umuman, yurtimizda bunday hodisalar oqibatidagi zarar yalpi ichki mahsulotga nisbatan o‘rtacha 0,4 foizni tashkil qilyapti.

Shu bois, yig‘ilishda “Xavfsiz yo‘l” milliy dasturi boshlanishi ma’lum qilindi. Buning uchun “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” respublika jamg‘armasi faoliyati qayta tashkil qilinib, hukumat bo‘ysunuviga o‘tkaziladi. Bu yil uch barcha manbalari hisobidan 400 milliard so‘m tushishi hisob-kitob qilingan.

Yig‘ilishda o‘rta va uzoq masofaga qatnaydigan jamoat transportini rivojlantirish choralari belgilandi, mutasaddilarga tirbandlik sabablaridan biri — avtomobil to‘xtash joylari yetishmasligi muammosini hal etish topshirig‘i berildi.

V

Prezidentimiz davlat tashrifi bilan Ozarbayjonda bo‘ldi. Dastlab har ikki mamlakat yetakchisi Zagulba qarorgohida to‘ra doirada uchrashuv va Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishini o‘tkazdilar.



O‘zbekiston — Ozarbayjon do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida kooperatsiya va almashinuvlarni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz bu galgi davlat tashrifi va Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatik munosabatlarni o‘rnatilganining 30-yilligi nishonlanayotgan yilda o‘tayotganini alohida ta’kidlandi.

Majlisda hukumatlararo komissiya hamraisarlari, transport, energetika va madaniyat vazirlarining muzokaralar kun tartibi yuzasidan hisobotlari tinglandi. Yig‘ilish yakunlari bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

Boku shahridagi muzokaralar yakunida Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi qarori qabul qilindi. Davlat rahbarlari huzurida qator ikki tomonlama hujjatlar almashildi.

O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi doirasida Boku shahrida “O‘zbekiston” bog‘iga tamol toshi qo‘yildi. Yangi bog‘ poytaxtning nufuzli va jadal rivojlanayotgan Oqshahar mavzesidan o‘rin oldi. Loyihaga ko‘ra, 4,5 gektar maydonda O‘zbekistonning boy madaniyati va an‘analarni namoyish etadigan ulkan majmua barpo etiladi.

Shuningdek, tashrif doirasida mamlakatimizning Boku shahridagi elchixonasi yangi binosining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda ishtirok etgan yetakchilar ramziy tasmani kesib, diplomatik vakolatxonaning yangi binosini tanatali ravishda ochdi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz 4-iyul kuni Xonkendi shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammitida ishtirok etdi va nutq so‘zladi. Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdid solayotgan xavf-xatarlarni qayd etdi. O‘zbekiston yetakchisi mojaro va nizolarni diplomatiya va konstruktiv muzokaralar yo‘li bilan hal etish muhim ekanini yana bir bor ta’kidladi.

O‘zbekiston Prezidenti qator dolzarb masalalarga e’tibor qaratdi. Avvalo, tashkilotning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini ilgari surish maqsadida “Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035” konsepsiyasini qabul qilish muhimligi qayd etildi.

VI

Xalqaro diplomatik munosabatlarni rivojida davlat yetakchilarining telefon orqali muloqoti ham alohida o‘rin tutadi. Prezidentimiz 7-iyul kuni Qatar Davlati Amiriri Shayx Tamim bin Hamad O‘l Soniy, 8-iyul kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali suhbatlashdi. Muloqotda ushbu mamlakatlar bilan strategik sheriklik munosabatlarini

borasida erishilgan yuksak natijalar haqida so‘z bordi.

Prezidentimizga mustahkam sog‘liq va mas’uliyatli davlatchilik faoliyatida yangi muvaffaqiyatlar, O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etildi.

O‘z navbatida, davlatimiz rahbari samimiy qutlovlar va ezuq tilaklar bildirgan xorijiy davlatlar, hukumatlar va parlamentlar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar yetakchilariga, taniqli siyosat va jamoat arboblari, ishbilarmon doiralar vakillariga, yurtimizdagi mehnat jamoalari, mahallalar, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari faollariga, tadbirkorlarimizga, mamlakatimiz va chet ellardagi barcha vatandoshlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etdi.

“Mening nomimga yo‘llangan ushbu tabrik va tilaklarni, avvalo, ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi va davlatiga yuksak hurmat va ehtirom, dunyo hamjamiyati bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizga, yorug‘ kelajagimizga ishonch va e’tibor ifodasi sifatida qabul qilaman”, dedi Prezidentimiz o‘z nomasida.

Shuningdek, barcha tashabbus va dasturlarimizni doimo qo‘llab-quvvatlab kelayotgan mard va olijanob xalqimizga yana bir bor chin dildan farzandlik mehri va ehtiromini bildirishdan baxtiyor ekanini izhor qildi.

VII

Tinchlik, millatlar o‘rtasidagi ahillik, hamjihatlik ne‘matining bahosi yo‘q. Yurtimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarida millatlararo totuvlik, o‘zaro ahillik va birodarlik, tinchlik g‘oyalarni mustahkamlash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraladi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har yili 30-iyulda Xalqlar do‘stligi kuni keng nishonlanadi.

Shu munosabat bilan xalqimizga yo‘llangan bayram tabrigining mazmun-mohiyati bilan tanishgan kishi borki, O‘zbekiston naqadar bag‘rikeng, inson manfaatlari birlamchi ahamiyat kasb etadigan mamlakat ekanini teran anglaydi. Davlatimiz rahbarining quyidagi so‘zlari va ishonchi bu boradagi manzarani bor bo‘y-basti bilan chizib bergan:

“O‘zbekiston fuqarosi ekanidan faxrlanadigan barcha millat va konfessiyalar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning huquq va manfaatlarni Konstitutsiya va qonunlarimiz talablari asosida hamma joyda qat’iy himoya qilish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Siz, azizlar Vatanimizning iqtisodiy va ijtimoiy qudratini oshirish, xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish yo‘lida bundan buyon ham fidokorona mehnat qilib, butun kuch-g‘ayratigiz, bilim va tajribangiz, iste’dod va mahoratingizni, kasbiy va insoniy salohiyatingizni to‘la namoyon etasizlar, deb ishonaman”.

Tabrikda urg‘ulangan quyidagi iqtibosni esa mulohazalarimizni boyitish uchun taqdim etishni lozim topdik: “...So‘nggi yillarda qat’iy siyosiy irodamiz bilan mintaqamizdagi qardosh davlatlar bilan do‘stona aloqalarimiz yangi bosqichga ko‘tarilib, dunyo siyosatida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora va voqeqli paydo bo‘lgani barchamizning umumiy yutug‘imiz, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

...Biz o‘zining halol mehnati, vatanparvarlik fazilatlari bilan respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga beqiyos hissa qo‘shib kelayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz”.

Darhaqiqat, inson qadri va baxti ulug‘lanayotgan, tinchlik, do‘stlik va mehr-oqibat diyoriga aylangan mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari xalqparvarlik quyoshi taftidan bahramand bo‘lib istiqomat qilmoqda. Davlatimiz rahbari ular bilan, ular esa Prezidentimiz bilan faxrlanadi.

VIII

Mavlono Jaloliddin Rumiyan bir gap keladi: “Senga taqdim etilayotgan har bir kun mo‘jizaga to‘la! Qalb ko‘zingni ochsang, ularni kutib emas, borligidan huzur qilib yashaysan”. Biz bugun shunday darajaga yetdikki, atrofimizda yuz berayotgan mo‘jizalarni voqealarni oddiy qabul qilamiz. Lekin bu farahbaxsh kunlar qanday ta’minlanayotgani, uning ortida mashaqqatli va fidokorona mehnat yotgani, tinchlik va barqarorlik qanday ushlab tutilgani haqida hammamiz ham o‘ylab ko‘raveramiz.

Balki odamlardagi bu xotirjamlik, oddiy idrok jamiyatning yutug‘idir, balki bizning, ya’ni jamiyat a’zolarining nuqsonidir. Gap hozir bunda emas. Gap ana shu oddiy narsalar dunyoning turli qaynoq nuqtalaridagi millionlab taqdirlar uchun armon, kimlar uchun qo‘l yetmas va ushalmas orzu ekanida.

Tegramizdagi mo‘jizaga to‘la kunlarga qalb ko‘zimiz bilan boqish va bundan huzur qilish, bahra olish saodati hech birimizni tark etmasin.



STANDARTLASHTIRISH — EKSPORTNI KENGAYTIRISHNING MUSTAHKAM OMILI

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lidagi sa'y-harakatlarini tobora faollashtiryapti. Bu barcha soha, ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlaridagi rivojlanishni xalqaro standartlarga moslashtirishga intilayotganimizning yana bir isboti. Nufuzli tashkilotning erkin va shaffof savdo munosabatlarini tartibga solish hamda kengaytirish orqali a'zo mamlakatlar barqaror taraqqiyotini ta'minlash hamda odamlar turmushini yaxshilashga qaratilgan vazifalari O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar maqsadiga to'la mos keladi.



Abdurauof ABDUQAYUMOV,
O'zbekiston standartlar instituti
direktori

Boisi, bugun imkoniyatlar qancha keng bo'lmasin, jahon bozoriga kirib borib, unda munosib o'rin egallash, xalqaro savdo hajmini oshirish oson emas. Buning o'z talablari, sifat va xavfsizlik nazorati bilan bog'liq me'yorlari mavjud. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, korxonalarni eksport salohiyatini oshirish, har bir shahar jahon standartlariga moslashtirish, yurtimizning xalqaro miqyosdagi o'rini yuksaltirish yo'lidagi keng ko'lamli ishlar zamirida shu maqsad mujassam.

Har kuni o'zgarib borayotgan dunyoda vaziyat nihoyatda qaltis. Global ekologik muammolar sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barobarida, eksport bozorini kengaytirish hozir dolzarb vazifadir. O'zbekiston oxirgi yillarda importyor davlatdan eksportyorga aylanmoqda. Barcha tarmoqda xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantirish ko'rsatkichi ancha o'sgan. Tabiiyki, biz hamkorlik qilgan an'anaviy davlatlar geografiyasini kengaytirish zarurati ham oshdi. Mamlakatimiz buni uldalladi. Hozir 120 dan ortiq davlatga mahsulot yetkazib beryapmiz. Milliy brendlarimiz hatto, Yevropa, okeanorti mamlakatlariga yetib borib, munosib baholalanmoqda.

Kuni kecha davlatimiz rahbari raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko'paytirish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishda bu yo'nalishdagi salohiyatimiz ancha yuqori ekanini ta'kidladik. Birgina misol: joriy yilning dastlabki olti oyida mamlakatimiz oziq-ovqat eksporti 44 foiz o'sib, 1 milliard 326 million dollarni tashkil qildi. Eksport geografiyasi 16 ta davlatga kengaydi.

Yangi standartlar

Nafaqat tashqi, balki ichki bozorni sifatli, xavfsiz, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talabiga mos mahsulotlar bilan boyitish muhim masalalardan. Bu borada standartlashtirish sohasini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Bugun standartlash, sertifikatlash ishlari yangicha yondashuvlar asosida bajarilmoqda. Aslida, xalqaro bozor talabi shunday — eski usuldagi sifat sertifikatlari endi talabga javob bermaydi. “Standartlashtirish to'g'risida”gi qonun aynan zamonaviy mexanizmlarni nazarda tutadi. Ushbu qonun bilan O'zbekiston standartlar institutiga “Standartlashtirish bo'yicha milliy organ” maqomi berilgani ham bu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Samaradorlik esa mamlakat eksport ko'rsatkichlarida yanada yaqqol ko'rindadi. Ilgari yurtimiz eksportining yarmi paxta tolasi hissasiga to'g'ri kelardi. Ushbu mahsulot eksportidan to'liq voz kechilgandan keyin tayyor kiyim-kechak sotuvi 4 barobar ko'paydi. O'tgan yilgi natijalarga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3 milliard 300 ming dollarni tashkil etdi. 2021-yilda O'zbekiston GSP+ tizimiga qo'shilgani natijasida Yevropa bozoriga tayyor mahsulot eksporti 1,5 barobar oshdi.

Tashqi savdoda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirishda Jahon savdo tashkilotiga a'zo



bo'lish yanada keng imkoniyatlar ochadi. Shu bois, O'zbekiston 2019-yildan bu xalqaro tuzilmaga a'zolik jarayonini yangidan boshlagan edi. O'tgan davrda ushbu maqsad sari dadil qadamlar qo'yildi.

Gap shundaki, Jahon savdo tashkiloti davlatlararo ko'p tomonlama savdo tizimini muvofiqlashtirib turuvchi nufuzli xalqaro tuzilmadir. Dunyo savdosining 95 foizi unga a'zo 164 mamlakat hissasiga to'g'ri keladi. Bunday katta bozorga kirib borish uchun mahsulot ko'plab mezonlarga to'g'ri kelishi kerak. Avvalo, sifat talablariga muvofiq bo'lishi zarur. Bu talablarni ko'rsatib beruvchi asos esa mahsulotga beriladigan sifat standartlaridir.

Yurtimizda bu boradagi ishlar tubdan yangilanayotgani boisi shunda. Masalan, o'tgan ikki yilda 4500 ga yaqin xalqaro standart bilan uyg'unlashgan milliy standartlar qabul qilinib, “tartibga soluvchi gilyotina” usulida umumiy hisobda qariyb 4000 ta ma'nan eskirgan

standart bekor qilindi. Amaldagi standartlar JST talablariga moslashtirilmoqda. Bugunga qadar tegishli vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari taklifiga asosan amaldagi 3094 ta standart tahlili o'tkazildi. Xulosalar asosida 2026-yil uchun xalqaro standartlarni amalga kiritish bo'yicha standartlashtirish dasturi shakllantirilmoqda.

Ayrim turdagi qurilish materiallarini sinovdan o'tkazish uchun Yevropa standartlari qabul qilindi. Ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar uchun texnologiyalarning energiya samaradorligi bo'yicha “yashil” standartlar joriy etilmoqda. Shuningdek, vazirlik va idoralar hamda tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida 6800 ga yaqin (o'tgan davrga nisbatan ikki barobar ko'p) standart foydalanish uchun yetkazib berildi.

Metalli reny mahsulotlari uchun “O'zMST 626:2025” milliy standarti ishlab chiqilib, amaliyotga kiritilishi natijasida O'zbekiston texnologik metallar kombinati (TMK) tomonidan mamlakatimizda ilk bor so'ligi 99,9 foiz bo'lgan reny metali eksport qilindi. Shu kabi ishlar natijasida yurtimizda milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish darajasi o'tgan yilgi 28,6 foizdan amaldagi 39,4 foizga yetkazildi. Joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 45 foizga, 2026-yil yakuniga qadar esa 55 foizgacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Sun'iy intellekt yordami

Keyingi vaqtlarda vazirlik, idora va tarmoq uyushmalari huzurida standartlashtirish bo'yicha milliy texnik qo'mitalar faoliyati qayta tiklangani ham sohadaq aniq mexanizmlardan biri bo'ldi. Hozir bunday qo'mitalar soni 34 taga, texnik qo'mita a'zolari soni esa 824 nafarga yetdi. A'zolar keng miqyosda faoliyat yuritib, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) texnik qo'mitalari faoliyatida 40 mutaxassis “to'laqonli”, 251 mutaxassis

“kuzatuvchi” maqomida ishtirok etmoqda. Qolaversa, mahsulot (xizmat)larning sifati va inson salomatligi uchun xavfsizligini ta'minlash talablarini belgilovchi 300 dan ortiq milliy standart, qariyb 2600 ta xalqaro standart bilan uyg'unlashgan standartlar qabul qilindi.

MDH mamlakatlari doirasida o'tgan navbatdagi majlisda esa barcha davlatning milliy idoralari tomonidan bir ovozdan ma'qullangan holda yurtimizda ilk bor “Bazalt va undan tayyor mahsulotlar” davlatlararo texnik qo'mitasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Natijada bazalt mahsulotlari uchun O'zbekiston manfaatlarini MDH davlatlari orasida yagona texnik qo'mita sifatida ilgari surish, davlatlararo standartlarni ishlab chiqish bo'yicha vakolatlariga ega bo'ldik.

Sohani raqamlashtirish jarayoni faollashgani ham yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bugun standartlashtirish yo'nalishiga sun'iy intellekt kirib keldi. Ana shunday ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan “Texnik tartibga solish” milliy axborot tizimi ishlab chiqilib, “tris.uz” elektron platformasi ishga tushirildi.

Ushbu milliy axborot tizimi 12 ta asosiy moduldan iborat bo'lib, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditatsiyalash va davlat nazorati yo'nalishlarida barcha jarayonni raqamlashtirish, qog'oz shaklidagi hujjatlardan voz kechib, hamma sertifikat, xulosa, bayonoma, xabarnoma kabi hujjatlar QR-kod yordamida elektron rasmiylashtirish mumkin.

Milliy axborot tizimi Raqamli hukumatning foydalanuvchilarni yagona identifikatsiyalash tizimi (id.egov.uz, OneID), idoralararo integratsiya platformasi va yagona billing tizimi, shuningdek, tegishli tashkilotlarning axborot tizimiga integratsiya qilindi. Natijada tizimning attestatsiya moduli to'liq ishga tushirilib, bugungacha sohaning 1425 mutaxassisidan 1274 nafari (89 foizi) attestatsiyadan o'tdi. Ushbu tizim ishga tushirilishi attestatsiyadan

o'tmaganlarning muvofiqlikni baholash ishlari ishtirokini cheklash imkoniyatini bermoqda.

Milliy axborot tizimining standartlar fondi moduli (fond.tris.uz)ga esa O'zbekiston standartlar instituti tomonidan 7100 dan ortiq standart mashina o'qiydigan formatga o'tkazilib, 5230 tasi parsing qilindi. Shuningdek, smart sun'iy intellekt dasturi asosida tarjima platformasini joriy qilish ishlari boshlanib, tegishli texnik topshiriq loyihasi ishlab chiqildi.

Gap shundaki, hozir mutaxassislar xalqaro standartlarni davlat tiliga tarjima qilayapti. Ammo bu jarayon ancha vaqt va mablag' talab qiladi. Bir sahifa tarjimaga o'rtacha 30-50 daqiqa kerak. Standartlar sun'iy intellekt yordamida o'g'irlilganda esa ushbu vaqt sarfi 5-10 daqiqagacha qisqarib, resurslar tejalisiga xizmat qiladi. Ya'ni zamonaviy platforma sohadaq ishlarning tez va samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Xorij tajribasi

Oldimizdagi asosiy vazifalardan biri — milliy standartlarni xalqaro talablarga moslashtirish. Buning uchun boshqa davlatlar tajribasini o'rganib, amaliyotda qo'llash, chet el tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilinmoqda.

Xususan, bugun sohada xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama 5 ta kelishuvga erishilgan. Germaniya standartlashtirish instituti (DIN) bilan standartlarni tarqatish hamda standartlarni tarjima va qabul qilish, Belarus davlat standartlashtirish va sertifikatlashtirish instituti (BelGISS) bilan texnik me'yoriy-huquqiy hujjatlar tarqatish huquqini beruvchi kelishuvlar shular jumlasidan.

O'zbekistondagi Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) uchun standartlashtirish sohasidagi raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan 3 ta loyiha pasporti va konsensiyasi ishlab chiqildi. Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida “Bir makon, bir yo'l” tashabbusini amalga oshirish yuzasidan Standartlar institutining takliflar loyihasi taqdim etildi.

Davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan joriy yilda tadbirkorlik subyektlarining 20 ming xodimi malakasi oshirildi. Shu asosida o'tgan davrda tadbirkorlik subyektlari va ishlab chiqarish korxonalarining 10 ming 559 mutaxassisi malakasi oshirildi. Natijada tadbirkorlik subyektlarining kurslarda ishtirok etib, yakuniy testdan muvaffaqiyatli o'tgan, mahsulot sifatiga mas'ul 91 xodimga sertifikat, qolgan tinglovchilarga guvohnomalar taqdim etildi.

Umuman, bugun sohada asosiy e'tibor milliy standartlashtirish tizimini xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirish, mahsulot va xizmatlar hamda ishlab chiqarish jarayonlarining sifati, ularning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Bu O'zbekistonga jahon mahsulot va xizmatlar bozori bilan faol hamkorlik qilish hamda iqtisodiyotni samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Asosiy, e'tibor sohada ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf qilish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, sanoatni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish va iste'mol jarayoni xavfsizligini ta'minlash, mamlakat tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi. Xalqaro standartlarga mos sifat sertifikati esa milliy brenddagi mahsulotlarning “tashiriq qog'oz”i bo'lib, yangi bozorlarga kirib borishga yo'l ochadi.

Tashabbus qanot yozdi



QIRLAR BOQQA AYLANIB, QISHLOQLAR SANOATLASHMOQDA

Oltiariq tumanidagi Qapchug'ay qir-adirlarini o'zlashtirish borasida boshlangan ishlar, yashillikka burkangan bog'-'ros'lar, ko'kka bo'ylayotgan binolar hayratingizni oshiradi. Farg'ona — Qo'qon katta avtomobil yo'liga tutashgan qir-adirlar bu qadar o'zgarib ketishiga hech kim ishonmagandi. Ammo bugun hammasi haqiqatga aylandi.

Dala-dashtga obihayot olib kelinib, ming gektar yerda uzumzor barpo etilganiga ham to'rt yil bo'ldi. Ko'z ilg'amas kengliklarda baravj o'sayotgan bog'lar birin-ketin hosilga kirmoqda. Adirlarni o'zlashtirish yo'lidagi boshlangan loyihalar faqat bog'-'ros' yaratish bilan cheklanib qolgan yo'q, albatta. Bu yerda “Yangi Oltiariq” yoshlar kichik sanoat zonasini qurish doirasida istiqbolli loyihalar ham bo'y ko'rsatyapti. Endi bu yerlar toshloq, ovloq joylar emas, balki obod, fayzli ekturizm maskanlariga aylanmoqda.

Sakkiz gektar yerdagi sanoat loyihalarini qurish ishlari unu kun uyushqoqlik, hamjihatlik bilan bajarilmoqda. Ishlab chiqarish tarmoqlariga hamohang ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmatga oid hamda aholi kundalik hayoti uchun kerakli boshqa ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar amalga oshirilyapti. Har kuni bir o'zgarish, yangilanish

bo'y ko'rsatyapti.

— Avvalo, ishlab chiqarish uchun muhim bo'lgan elektr, suv va gaz tarmoqlari tortib kelindi, yo'llar yotqizildi. Tadbirkorlarga imkon qadar qulaylik yaratish, muammolarni bartaraf etish ustida ishlayapmiz, — deydi Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi Kichik va yoshlar sanoat zonalar bo'yicha yagona direksiyaning Oltiariq tumani bo'yicha mutaxassisi Akmaljon Qodirov. — Mazkur hududda qiymati 23,6 milliard so'mlik 20 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Shu kunga qadar umumiy qiymati 6,6 milliard so'mlik investitsiya evaziga 57 ta ish o'rni ochildi. Yaqin kunlarda yana 11 ta loyiha ishga tushirilishi kutilmoqda. Ular orqali 168 ta yangi ish o'rni vujudga keladi.

Kichik sanoat zonasida qurilayotgan inshootlarda hayot qaynaydi. Ishlab chiqarish

sexlariga yangi uskunarlar o'rnatilmoqda, ishchi-xizmatchilar uchun kerakli shart-sharoit yaratilyapti.

— Sport jihozlari va kiyim-kechak ishlab chiqaramiz, — deydi “Rasul TS” oilaviy korxonasi rahbari Muhammadrasul Tursunov. — Shu paytga qadar mahalladagi moslashgan binoni ijaraga olib ishladik. Mahsulotimiz hajmi kamligi bois, buyurtmachilar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik o'rnatma olmay, vositachilar yordamida sotganmiz. Kichik sanoat zonasidan yer ajratib berilgach, yirik ishlab chiqaruvchiga aylandik. Qo'shimcha o'rta uskunalar olib keldik. Charm qo'lqop va boks qopi, getra (maxsus paypoq) ishlab chiqarish tarmog'ini ishga tushirdik. Bu mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish, eksport miqdorini ko'paytirish imkoniyatini berdi. Qo'shimcha 20 ga yaqin ish o'rni ochildi.

“Asila Asliddinova tekstili” MCHJ 3 milliard so'mlik investitsiya asosida paypoq ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Natijada 25 fuqaroning bandligi ta'minlandi. Tajribali tadbirkor Asrorbek Mahkamov ishlab chiqarish ko'laminani yanada kengaytirish niyatida.

— Ilgari bir qarich yer olish mushkul edi, — deydi tadbirkor. — Endi hammasi

yaxshi tarafa o'zgardi. Ishlayman deganga imkoniyat berilyapti, qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zimizning paxta tolasidan tayyorlangan paypoqlar hamisha xaridorig bo'lgan. Yangi korxonada “Gradus” brendi ostida bejirim



kunga qadar 1000 kilovattli ikkita transformator o'rnatildi, bir kilometrga yaqin suv tarmog'i tortildi. Bu ishlab chiqarish korxonalarini uzluksiz elektr va suv bilan ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, muqobil elektr manbalaridan foydalanish borasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlayapmiz.

“Yangi Oltiariq” yoshlar kichik sanoat zonasining yana bir o'ziga xos jihati bor. Ishlab chiqarish tarmoqlariga hamohang qurilayotgan zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar oltiariqlik yoshlar uchun yangi imkoniyat ehsiklarini ochmoqda. Bugunga qadar bu yerda 3 ta besh qavatli turar joy barpo etildi. Yana ikkita ko'p qavatli uy jadal qurilyapti.

— O'tgan yili o'lim bilan ko'chib kelganman, — deydi Gulnoza Ismoilova. — Yashash joyimizga yaqin hududda “Asila Asliddinova tekstili” MCHJ tomonidan qurilgan korxonada paypoq ishlab chiqaryapmiz. Shart-sharoiti juda yaxshi. Muhimi, farzandlarim, yaqinlarim oldidaman. O'ylik maoshimizni o'z vaqtida o'layapmiz, tushligimiz bepul, dam olish uchun qulay sharoit yaratilgan. Mazkur yerga ko'chib kelib, ishlab istagini bildirayotganlar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bog'cha, maktab, do'kon singari xizmat ko'rsatish tarmoqlari qurilayotgani uzog'imizni yaqin, og'irimizni yengil qilayapti. Ish lab boshqa joyga borishga zarurat qolmadi. Hammasi bir joyda. Bu juda katta imkoniyat.

Kichik sanoat zonasida mehnat qilayotgan tadbirkorlarning shijoati yadoq dala-dashtlarni yashillikka burkamogda. Tikanzorlar o'rmiida yangi bog'-'ros'lar, ravon yo'llar qurilayotgani ko'z ilg'amas Qapchug'ay qirlariga yangi hayot nafasini olib kirmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

KENG UFQLAR, BALAND ORZULAR, YUKSAK MARRALAR SARI



Bahodir SHERMUHAMMEDOV, pedagogika fanlari doktori, professor

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir, deydi ulug‘ shoir Cho‘lpon. Ha, xalq buyuk kuch. Xalq ba‘zan yo‘l boshida turib, yon-atrofni kuzatib, o‘ziga yetakchi tanlaydi – yurtni harakatga keltira oladigan, yuragida jasorat, ko‘zida nur, yurishida ishonch bor shaxsga ergashadi.

O‘zbekiston uchun bunday palla 2016-yilda boshlandi. Xalq o‘z tanlovini qildi — Shavkat Mirziyoyev mamlakatni boshqarishga kirishdi. Shundan buyon oradan o‘tgan yillar raqamlarda emas, yurakda o‘lchanadigan yillar. Bu yillar sakrayotgan qoplonga o‘xshaydi: u orqaga emas, faqat oldinga, o‘z qudrati bilan sakraydi, yuksaladi, g‘oyaviy va iqtisodiy poydevorni mustahkamlaydi.

Bugun ortga nazar solar ekanmiz, faqat o‘zgarishlarni emas, balki yangilanishni, taraqqiyotni, hayotga bo‘lgan yondashuvdagi tub burilishni ko‘ramiz. Shunday islohotlar bo‘ldiki, ular faqat tizimni emas, tafakkurni ham o‘zgartirdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston jamiyatida ulkan yuksalishlar yuz bermoqda. Bugungi kundagi yurtimiz siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy hayoti sakkit yil avvalgi holat bilan solishtirilsa, tubdan farq borligi ayon bo‘ladi. Xalqning davlatga, jamiyatga, ertangi kunga

Yangi O‘zbekistondagi har bir yangilik, avvalo, inson hayotiga qulaylik yaratish, adolatli muhit barpo etish, xalqni davlatning asosiy boyligi va kuchi sifatida e‘tirof etishdir.

Davlatimiz rahbari yana bir o‘ta dolzarb masalaga to‘xtalgan holda bunday deydi: “Inson — davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo‘lishi lozim”.

Bugun inson qadrini ulug‘lash, munosib turmush uchun imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, sud-huquq tizimi — barchasi inson manfaatlarini yo‘lida isloh qilinmoqda. Buni xalq o‘z hayotida tobora ko‘proq sezmoqda.

Yangi O‘zbekiston inson qadrini hamisha ustun qo‘yadigan, xalq manfaatini uchun harakat qiladigan davlatdir. Bu



munosabati butunlay yangicha mazmun kasb etmoqda. Buning zahirida “Inson qadri uchun” g‘oyasi turibdi.

Keng ko‘lamli islohotlar markazida aynan inson, uning sha‘ni, g‘ururi va erkin yashash huquqi turadi. Prezidentimiz bu borada konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvdagi nutqida bunday degandi: “Insoniyat ilmiy-texnologik davrga qadam qo‘ydi. Jahonda keskin transformatsiya jarayonlari va raqobat kuchaymoqda. Ertangi kunini o‘ylagan xalqlar va davlatlar o‘z kelajagi haqida bugun har qachongidan ham jiddiy bosh qotirmoqda. Shu o‘rinda tabiiy savollar tug‘iladi. Mana shunday davl qiluvchi pallada va kelajakda davlatimizda insonning o‘rni va qadri qanday? Qanday siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ma‘naviy-gumanitar tamoyillar, qadriyat va manfaatlar biz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi?”.

Bu savolga amaliy javob sifatida O‘zbekiston Konstitutsiyasini yangilash, uning mazmuniga “inson — jamiyat — davlat” yondashuvini singdirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar qilindi. Bosh qonunimizda inson huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini ustuvor bo‘lishi belgilandi. Prezident bu borada bunday fikr bildirdi: “Biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaatini — hamma narsadan ustundir”.

Ayni shu tamoyil asosida islohotlar amalga oshirilib, barcha sohalarida inson manfaatlarini ustuvorlik kasb etmoqda. Xususan, konstitutsiyaviy islohotlar nafaqat qonunchilik jihatidan, balki mazmunan ham xalqning ertangi hayotini yaxshilashga qaratilgan.

yo‘l yurtimizni kelajakda yanada erkin, taraqqiy topgan va adolatli jamiyat sari yetaklamoqda.

Shavkat Mirziyoyevning boshqaruv konsepsiyasi oddiy, lekin ulug‘vor: inson qadri hamma narsadan ustun.



Yillar davomida yakkahokimlik ostida ezilgan paxtakor endi mehnatining evaziga rohat ko‘radi. Majburiy mehnat tarixga aylandi. Dehqon yerga egalik qiladi, fermer hosilini o‘zi sotadi, xalqaro tashkilotlar bu o‘zgarishni tan oldi.

Bu shunchaki qog‘ozdagi islohot emas, balki inson sha‘nining tiklanishidir. Paxta bugun kiyimga aylanib eksportga chiqmoqda, fermerlar nafaqat qonunchilik jihatidan, balki mazmunan ham xalqning ertangi hayotini yaxshilashga qaratilgan.

Oliy ta‘lim tizimidagi islohotlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy salohiyatli mutaxassislarining jamiyatdagi mavqei oshirildi.

Mamlakatimizda ta‘lim va tarbiya sohasining ustuvor yo‘nalishga aylantirilgani, oliy ta‘lim muassasalari soni va sifat ko‘rsatkichlari ortib borayotgani, stipendiya va maoshlar oshirilishi natijasida o‘qituvchi “ilm va ma‘rifat maskani”ga qaytdi.

Bunga parallel ravishda ilmiy tadqiqotlarga ajratilayotgan mablag‘ hajmi oshdi, yosh olimlarga keng imkoniyatlar yaratildi. Ilmiy grantlar, xorijiy ta‘lim dasturlari, xalqaro reytinglar bilan ishlash — bularning bari yangi O‘zbekistonning ilm-fan rivojiga bergan e‘tiboridir.

Oliy ta‘limda ochiqlik, raqobat va yangilanish davri boshlandi. Universitetlar integratsiyalashdi, yangi fakultetlar ochildi, xorijiy diplomlar tan olina boshlandi, stipendiya oshdi, yosh olimlarga imkoniyatlar eshigi ochildi. Ilm davlat siyosatining ustalaridan biriga aylandi. Farg‘ona davlat universitetida bugun nafaqat ta‘lim, balki ilm-fan, innovatsiya, xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir paytda ta‘lim tizimi raqamlashtirilishi zamonaviy taraqqiyotning muhim asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Joriy etilgan “Elektron universitet” tizimlari, “ilm-fan — ishlab chiqarish — innovatsiya” uchligi orqali amalga oshirilayotgan raqamli loyihalar ta‘lim sifatini yuksaltirmoqda.

“Elektron universitet”, masofaviy ta‘lim, sun‘iy intellekt asosida baholash biz uchun o‘zgarmas voqeelikka aylandi. Raqamli transformatsiya ta‘limni tez, aniq va shaffof qildi.

Korrupsiya — jamiyatni ichdan yemiruvchi virus. Bu ilatga qarshi kurash davlat siyosatining asosiy frontiga aylandi. Har bir universitetda “Korrupsiyasiz soha” tamoyili asosida ishtirok etildi. Imtihonlar, attestatsiyalar, mablag‘ ajratish jarayonlari shaffoflashtirildi. Farg‘ona davlat universitetida ham “Korrupsiyani

ildizigacha yo‘qotamiz” shiori ostida bu borada doimiy monitoring asosida ish olib borilmoqda.

Bugun orqaga qarab, so‘nggi sakkiz yilda amalga oshirilgan islohotlarni ko‘rib, ko‘z oldimizda qanday katta sakrash, boshqaruv ulkan harakat, qanday mardona bosqichlar turganini his qilamiz.

Endi esa oldimizda keng ufqlar, baland orzular, yuksak maqsadlar turibdi. Yangi O‘zbekistonning ertasi ma‘rifatli, kuchli, barqaror taraqqiyotga yo‘naltirilgan bo‘lishiga ishonamiz.



2025-yil 1-avgust, 156-son

5

Nuqtayi nazar

YURTIMIZ TURIZMI ISTIQBOLLARI

XORIJ NASHRLARI E‘TIROFIGA NIMALAR SABAB BO‘LMOQDA?

Alisher ESHTAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O‘zbekiston turizm salohiyati sayyohlar uchun qulaylik, xavfsizlik va tashrif buyurishga arziydigan manzillar nuqtayi nazaridan xalqaro doirada yuksak e‘tirof etilmoqda. Jumladan, “BBC Travel” global mediaportali O‘zbekistonni 2025-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi 25 ta yo‘nalish ro‘yxatiga kiritdi. AQSHning yetakchi nashri — “The New York Times” Buxoro shahrini 2025-yilda tashrif buyurishga arziydigan 52 ta eng yaxshi joy, “Time Out” jurnali esa Samarqanddagi Registon maydonini dunyodagi eng go‘zal 44 ta joy sifatida qayd etdi.



Turizm sohasidagi o‘zgarishlar hamda islohotlar haqida 2025-yilning o‘tgan davrida mahalliy ommaviy axborot vositalarida 3,8 mingga yaqin material e‘lon qilindi. Xorijiy ommaviy axborot vositalarida 250 dan ziyod material chop etildi.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan keskin raqobat muhitida turizm iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda dunyoda 200 millionga yaqin kishi turizm sohasida mehnat qilmoqda. Undan tushayotgan daromad 1 trillion dollarni tashkil etmoqda. Sayyohlar safi har yili 4-5 foiz ko‘payib, boshqa davlatlarga safar qiluvchilar soni 1 milliarddan oshadi. Qolaversa, hozir dunyoda yaratilayotgan har 10 ish o‘rnining bittasi aynan turizm sohasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Turizm



16. Uzbekistan
Uzbekistan has one of the youngest populations in the world - more than 60% are under 30. Being surrounded by a sea of young people on Twitter's metro, which, despite an art museum with Soviet-era mosaics, you can see a new generation taking

topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo‘liga ish haqi bo‘lib boradi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu ko‘rsatkich 10 foizdan oshmaydi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda turizm bo‘yicha juda keskin o‘zgarishlar kuzatilmoqda, ular soha rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Xususan, turizm rivojiga qaratilgan yangi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda, xalqaro va mahalliy darajada o‘tkazilayotgan tadbirlar, yangi ta‘lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, yangi turizm mahsulotlari va yo‘nalishlar yaratilishi, turizm infratuzilmasini takomillastirishga oid sa‘y-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq vakillarining tashrifi va boshqa qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz joriy yil 9-aprelda hududlarning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiya loyihalarini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida turizm sohasidagi ayrim kamchiliklarga alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, hududlarda kapsulali uylardan iborat maskan faqat Kitobda ochildigani qayd etilib, qolgan 35 ta tuman va shaharda ham ochish zarurligi qayd etildi.

Mutasaddirlarga “turizm halqasi”ga kirgan yo‘llarni ta‘mirlash bo‘yicha hisob-kitob qilib, ishlarni boshlash topshirildi. Turizm qishloqlarini tashkil qilish bo‘yicha 3 yil oldin boshlangan ish yaxshi samara berayotgani e‘tirof etildi. Shuningdek, yig‘ilishda joylardagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarib, turizm yo‘nalishlarini ko‘paytirish, sayyohlarga sharoitlarni kengaytirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Masalan, Sariosiyo tumanining asosiy qismi tog‘lardan iborat bo‘lib, qishki turizm uchun katta salohiyat mavjud. U yerda dor yo‘li, mehmonxona va savdo-servis xizmatlari sohasida 200 million dollarlik loyihalar qilsa bo‘ladi. Chortoq tumani ham go‘zal tabiiy, shifobaxsh suvi bilan mashhur.

Mutasaddirlarga shu kabi 36 ta tuman va shaharni etno, gastronomik, tibbiy, ekstremal, madaniy-tarixiy, ziyorat, qishki va agroturizm asosida rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish topshirildi.

Ushbu videoselektor yig‘ilishida aytilgan imkoniyatlarni ishga solib, joriy yilda turizm sohasida:

— xorijdan 15 million sayyoh jalb qilish va eksporni 4 milliard dollarga yetkazish;
— 635 ta mehmonxona va mehmon uyini ishga tushirish, 50 mingga yangi ish o‘rni yaratish;
— qo‘shimcha 375 ta turoperator faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

Andijon, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Toshkent viloyatida 1 tadan, Qashqadaryoda 2 ta va Buxoroda 3 ta turizm qishlog‘i tashkil qilish ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqlar asosida yurtimizda 2025-yilning birinchi yarim yilida turizm sohasida ancha-muncha ishlar qilindi.

Xususan, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida 5,3 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan va turizm xizmatlari eksporti 2,4 milliard dollarni tashkil etgan. Bunda qo‘shni davlatlardan va MDH mamlakatlaridan tashrif buyurgan sayyohlar soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,1 barobar, uzoq xorij davlatlaridan kelganlar 1,3 barobar oshgan. Davlatlar kesimida Xitoydan o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 barobar, Fransiya, AQSH, Ispaniya, Malayziya, Hindiston va Turkiyadan 1,2 barobar, Germaniya va Italiyadan 1,1 barobar ko‘p sayyoh kelgan.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qili!” dasturi doirasida hududlar bo‘ylab aholining 12,3 millionta tashrifi amalga oshirilgan. Ijtimoiy ko‘mak sifatida imkoniyati cheklangan 8,3 mingga yaqin shaxs va 2,7 million yoshning sayohatlari tashkil etilgan.

Turizm va unga yondosh sohalar yo‘nalishida 11 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratilgan. Hududlarda 60 ta yangi mehmonxona, 287 ta oilaviy mehmon



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



uyi, 146 ta xostel va 24 ta boshqa joylashtirish vositasi, jami 517 ta yangi joylashtirish vositasi (12,8 ming o‘rin) tashkil etilgan. Bugungi kunda mehmonxona va joylashtirish vositalari soni 6448 taga yetib, o‘rinlar soni 170 mingtadan oshgan.

Sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi 368 ta yangi sayyohlik tashkiloti va turagent faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ularning soni 4052 taga yetgan.

Respublikamiz bo‘ylab 3415 gid-ekskursovod faoliyat ko‘rsatmoqda, joriy yilning yanvar-iyun oylarida 215 gid-ekskursovod tayyorlangan.

Xorijiy davlatlarda (Ispaniya, Vengriya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, BAA, AQSH kabi) bo‘lib o‘tgan 18 ta nufuzli turizm ko‘rgazmasi va yarmarkasida O‘zbekistonning turizm salohiyati targ‘ib qilingan.

Mamlakatimizning turizm salohiyati “Xitoyda O‘zbekiston turizm yili” doirasida 20 tadan ortiq provinsiya taqdimot qilingan.

Xorijiy 11 ta davlatda 21 ta “Road show”, madaniyat tadbiri va taqdimot tashkil etilib, 15 ta xorijiy yirik mediaplatformada mamlakatimizning sayyohlik salohiyatiga oid 50 ga yaqin kontent joylashtirilgan.

Joriy yilning o‘tgan davrida Qashqadaryo viloyatida Bashir va Qaynar, Jizzax viloyatida Uzunbuloq, Farg‘ona viloyatida Topoldiyev, Samarqand viloyatida Oqsoy va Omonqo‘ton, Surxondaryo viloyatida Nilyu turizm qishloqlari va turizm mahallalari tashkil etilib, ularning jami soni 26 taga yetkazildi.

Sohada raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida “Tourist map” interaktiv portali va



mobil ilovasi ishlab chiqildi hamda sinov tariqasida Samarqand xalqaro aeroportida interaktiv uskunalar o‘rnatilgan holda ishga tushirildi.

Samarqandda Xalqaro turizm akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, unda malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Ushbu davrda mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish maqsadida mamlakatimizda xalqaro va respublika miqyosidagi ko‘plab tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, Qoraqalpog‘istonda “Navruz” etnofestivali, “Orol turizmi” haftaligi, “Mizdaqxon — muqaddas va sirli makon” nomli xalqaro festival, “Mo‘ynoq Ralli — 2025” ekstremal avto-moto pog‘alari, “Stixiya” xalqaro elektron musiqa festivali, Bo‘stonliq tumanida II xalqaro “Farhod Challenge — Strongmen Games” turniri hamda Xiva shahrida V xalqaro “Pahlavon Mahmud — Strongmen Games” bahodirlar o‘yini musobaqasi yuqori saviyada tashkil etildi.

Mamlakatimizda turizm uchun eng qulay vaqt hisoblangan mart-aprel oylarida barcha hududlarda ichki turizm yarmarkalari o‘tkazildi.

Hozirgi davrda yurtimizga sayyohlarning asosiy qismi tarixiy-madaniy turizm yo‘nalishida kelmokda. Bizda turizmning juda ko‘p turlari va shakllarini (tarixiy-madaniy turizm, agrar turizm, etnoturizm, ziyorat turizmi, ekologik turizm, ta‘lim turizmi, gastronomik turizm, sport turizmi,

ommaviy tadbirlar turizmi) rivojlantirish, ular bo‘yicha sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlarini mavjud.

Xalqaro miqyosda ommaviy turizmning voz kechilib, individual turizmga katta e‘tibor qaratilmoqda, ya‘ni sayyohlarning alohida qiziqishlaridan kelib chiqib, innovatsion turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqish keng tus olmoqda. Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan turizm tashkilotlari ushbu jarayonga e‘tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Jahon turizm bozorida milliy turizm brendini faol ilgari surish, marketing tadqiqotlarini amaliyotda keng qo‘llash, ijtimoiy tarmoqlarda reklama, sohada malakali kadrlar tayyorlash, amaliyot xodimlarini malakasini oshirish tizimi kengaytirish sohaning rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi.

Umuman olganda, mamlakatimizda turizm sohasida zamonaviy yo‘nalishlar va turlarni yo‘lga qo‘yish xorijiy sayyohlar oqimi ortishi, ichki va xalqaro turizm rivojlanishi hamda tashrif geografiyasini kengayishiga olib keladi.

Kitoblarda axloq, tarix, taʼlim, ilm-urfon mujassamlashadi. Qadimgi Misr, Bobil, Shumer, Yunon, Hind, Xitoy zamonlaridan beri shunday: insoniyatga muallim va ustoz boʻlgan “Gilgamesh”, “Mahobhorat”, “Illiada”, “Eneida”, “Ayyub nidosi” singari asarlarda ham eng qadim axloq, tarix va mashaqqatli tajribalar tajassum topgan.

Biz hali-hanuzgacha oʻzimizni qidirib, ulardan topamiz. Insoniyatning eng yaxshi odamlari ham doim izlangan. Odissey kabi. Bizga ajdodlardan qidirish meros qoldi.



faqat kitobxonlik dasturlari asosida, ularga chambarchas bogʻlangan holda amalga oshadi deb umid qilaman. Bunga toʻla ishonaman. Texnologiyalar, kasb-hunarlar, ilm-urfon va estetik! Estetika ham esdan chiqmasligi lozim. Osilsang ham estetikaga osil, ha!

Prezidentimiz gʻoyalarning koʻnikma saviyasidagi hosili — bu kitobxonlik va zamon, kelajak texnologiyalarini real aniqlikda, barcha manzaralari bilan oʻzlashtirish va original metodlarini ishlab chiqishdir. Tajribalar boyib boradi, layoqatlar bora-bora inson genlariga oʻtadi va salohiyatning tabiiy plazmasi, hujayrasiga aylanadi. Koʻnikma — kitob metodikasiga doimiy intilish, tabiiy estetikaga tashnalikdir.

Bizning XXI asrda juda katta-katta, qalin-qalin kitoblar chiqarish keng rasm boʻldi. Bu kitoblarning barchasi goʻyo vaqt — insonga berilgan gʻoyatda cheklangan vaqt bilan basmas musobaqa oʻynayotganday. Bu kitoblar jamiyat — tirik odamlar oʻqisin, oʻqiyladi degan olijanob niyatda katta mehnatlar qilib, ulkan mablagʻ evaziga, poʻrim holda nashr etilgan. Eng muhimi, endi ularni qunt bilan oʻqib, fikr-xulosa chiqarish lozim. Ammo qani vaqt topib oʻqiyladigan azamat yigit-qizlar, millat gʻamini yeb, kuyib-yonayotgan mardu maydonlar? Oʻzimizdan qiyos qilsam, ularning koʻz oʻngimda, qoʻl ostimda turgan yal-yal yongan zarhal, nuroniy siymolariga qarab toʻymay, gʻam-anduhga botaman: “Qachon oʻqiyimiz? Bu axir ulugʻ Mehmet Okif Ersoy-ku, bu axir uning millat taqdirini jamlagan mislsiz “Safahot”-ku! Mana bu esa benazir donishmand Mehmet Fuad Koʻprulu-ku! Uning ilmi donishi gurkirab, tinmay oʻziga chorlayotgan “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar”-ku! Yopiray, ilm choʻqqilari ham shu qadar zalvorli va shu qadar koʻk bilan tutash zirvalar hosil qiladimi? Qidirish shunchalar boʻlar ekan-da! Qodir-u qadarga yetkazish shunchalar fasanosoz jamol kasb etib, kamol topa olar ekan-da!”

Yaqinda bu asl kitobning oʻzbekcha tarjimasini menga keltirganlarida, uni tavof etib, dastboʻsi qildim.

Chunki bu kitob haqida 50-yillardan beri eshitardim. Qulogʻimga u haqida Laziz Azizoda, Inoyat Maqsum, Husanbek Ibodov, Solih Mutallibov, Toʻxtasin Jalolovning soʻzlari, gʻaroyib maʼlumotlari koʻrgʻoshinday quyilib qolgandi. Bular goʻyo yoʻq boʻlib ketgan mamlakatning jozib gʻuboridat tuyulardi menga. Yana chunonchi, Abdulhaq Homid sheʼrlari, Ziyi Koʻkalpning sirli “Turk adabiyoti” kitobi haqidagi xotiralar ham shular jumlasidan.



Ibrohim GʻAFUROV, Oʻzbekiston Qahramoni

Joʻrovoz Erk deya topinmayin. Ha, ilk bora tarixda ozodligimiz chin maʼnoda Joʻrovoz Erk kabi jaranglamogʻda. Barcha faryodlar, sayhalar, nolalar, nidolar endilikda Joʻrovoz Erk darajasiga koʻtariladi.

Yaʼni barcha ijtimoiy sadolar xalqlarning joʻrovoviziga aylandi. U xalqning yuragidan chiqmogʻda. Bunga bizning turli shakldagi ommaviy kitobxonliklarimiz ham sabab boʻlmogʻda.

Jamiyatning keyingi yillardagi kitobxonlik, kitob oʻqish va bularning keng, izchil targʻiboti bilan bogʻliq saʼy-harakatlari muayyan bosqichga yetdi. Yetti-oʻn yoshida kitob targʻiboti nashdalarini boshidan kechirgan nihollar bugun yetuk oʻsmir, balogʻat yoshiga yetgan yigit-qizlarga aylandi. Matbuot va televideniya ularning biyron-biyrin soʻzlarini, fikrlarini koʻpchilik eshitib turibdi. Bu biyronlar, yana ham aniqroq qilib aytak, fikrlavchi, maʼruza qilishga qobil, 18 ga kirgan, gapning ega-kesimini ajrata oladigan yoshlar, aytaylik, oʻn milliondan qancha foizni tashkil etarkan? Buni hisoblash qiyindir, ammo xomchoʻt qilish mumkin. Kitobxonliklarimizning eng taʼsirli natijasi, mahsuli — bu, haqiqatan, biyron yoshlar, fikrchan yangi nasl. Ular yangi ijtimoiy hodisalarning oʻziga xos, original ifoda usulini topishga oʻrganmogʻda. Oʻz tesha tegmagan fikr-mulohazalarini oʻrtaga qoʻymogʻda. Fiziklar tili bilan aytganda, oʻz fikr maydonlarini yaratishga intilmogʻda.

Men koʻp muassasalar, maktablar, oʻquv dargohlari, ijodiy tashkilotlar, kutubxonalar, viloyatlardagi kitobxonlik anjumanlarida qatnashishga harakat qilaman.

Ochigʻini aytishim kerak, kitobxonlik anjumanlari oxirgi paytlarga kelib bir xil qoligʻa tushib qolgan. Xuddi yosh adib Furqat Alimardonning “Qorakuya” qissasida tasvirlanganidek. Kitobxonlik yigʻilishida maktab direktori soʻz aytadi, maʼnaviyatchi maʼruza qiladi, mehmon shoir sheʼr oʻqiyladi, adib yangi asarining yozilish tarixini hikoya qilib beradi va nihoyat, oʻquvchi yoshlar adabiyot namunalaridan yod oʻqiyladi. Hamma yerda mana shu sxema urf boʻlgan va kitobxonlik shu bilan tugaydi. Hamma yelkasidan bu vazifa soqit boʻlganidan yengil tortadi. Koʻpdan koʻp taqdimotlar esa (kitobxonlik anjumanlarida eng koʻp uchraydigan yigʻilish turi) yangi chiqqan kitob hali tarqalib ulgurmay, eilik-yuzta kitob ishqibozlari ham oʻqib yoki qoʻlida salmoqlab koʻrmay, mutlaqo tayyorgarliksiz oʻtkazilaveradi. Oti — taqdimot! Albatta, bunday xoʻjakoʻrsinga qilingan taqdimotlarning foydasi juda oz! Yangi kitobning ichiga kirib ulgurmaysiz. Juda yuzaki, qoniqarsiz taassurotlar sizni uzoq vaqt tark etmaydi. Sovigan hafsala bilan yurasiz.

Lekin men boshqacha taqdimotda ham boʻldim. Unda kitob taqdimoti ziyolilar, muxlislar uchun maʼnaviy-maʼrifiy bayram tusini oldi.

Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda”

deb nomlangan, yangi nashrdan chiqqan kitobning “Oʻzbekfilm” klubida oʻtgan taqdimotida qatnashib, rosti, qattiq mutaassir boʻldim.

Davra oybekona shaʼn edi. Olimlar soʻylaydi — har birida haqiqat maʼvosidan bir chizgi. Kinoepizodlar qoʻyildi — har epizodda bir qodiriycha tugun, musiqiy jonbaxsh yirik anduh. Davrada Shukur Xolmirzayev, Oʻtkir Hoshimov, Umarali Normatov ruhi anjuman fayzidan zavqlanayotganday namoyon boʻlib kezib yurardi. Anjumandan keyin bu baland zavq uzoq vaqt davom etdi. Odamlar goʻzallik shavqini ancha vaqtgacha tark etgisi kelmaydiganday edi. Mutasaddilar anjumanning chin zavq bagʻishlaydigan ruhini, taqdimot kayfiyatini yaratishgan va puxta tayyorgarlik koʻrgandi. Bunday kitobxonlik taqdimotlari bir umr esdan chiqmaydi. Biz, kitobsevarlar, shunday yorqin, sanʼatkorona natijadorkini orzu qilmaymizmi? Asosiy koʻzlagan maqsadimiz ham shu emasm, axir? Natijadorlik taqdimotdan soʻng matbuot sahifalarida davom etdi. Otabek Bakirov

“Jadid” gazetasida hayajonli bir badia yozdi, unda quyidagi soʻzlar eʼtiborimni tortdi: “Bir kishilik avtohalokat” hikoyasini esa yangi kitobning qalbi deb oʻyladim. Hikoya Chingiz Aytmatovning “Jamila”, “Sarvomat dilbarim” qissalari, Stendalning “Parma ibodatxonasi” romani va Lev Tolstoyning “Anna Karenina” epopeyasini eslatadi”.

Yana muallif quyidagicha davom etadi: “Umuman olganda, har doim ham yaxshi yoʻlomonga ajratish toʻgʻrimi? U holda, — deydi tamomila hayratlanib badia muallifi, — nisbiylik nazariyasi qayerda qoladi?”.

“Yigʻlay-yigʻlay tugatdim oxir” deb nomlangan ushbu badia gʻoyatda kutilmagan va tutilmagan fikrlar bilan limmo-lim. Men esa oʻquvchi, haqiqiy zamonaviy kitobxon muhokamasi mana shunday oʻy-xayol, zavqu shavqqa boy boʻlishi kerak deb hisoblayman. Aks holda, kitobxonlik jabhasidagi muloqotlarimiz Mehriroz Abbosova bir sheʼrida pisanda qilganidek, “Suhbatlarimiz mayda, hashaki”ga oʻxshab qolishi xavfi olijanob yoʻlimizni toʻsib qoʻyishi mumkin.

Endigi kitobxonlik haqiqiy oʻtyurak boʻlishni taqozo qiladi. Qoʻyilayotgan vazifalarning miqyosi, ahamiyati, xususiyatlari shunday. Qayerda boʻlmasin, ishbilarmonlik oʻsha dolzarb ishlarining harakatlantiruvchi markazidir.

Hozirgi damlarda Oʻzbekistonda yoshlar va umuman, keng maʼnoda barcha fuqarolar tayyanadigan sohalar, makonlar, maydonlar naqadar katta va serqamrov! Ular butun tomlari bilan xalqaro, transnatsional boʻgʻinlarga ulangan. Oʻzbekiston Prezidentining yaqinda, 30-iyunda Yoshlar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimda soʻzlagan katta miqyosdagi nutqida bu sohadagi mamlakat va xalqning tashvishlari hamda kreativ manzaralari birmabir yoritib berildi. Bularning barchasi bugun va kelajakda amalga oshishi uchun azamat aqllar, jasoratli, gʻayratli aqllar tayyorlanishi zarur. Belni mahkam bogʻlaydigan yuksak salohiyatli nasllar kerak. Ufqimizda shuncha miqyosda aniq-tiniq, buyuk va bunyodkorlik ishlar rejas! Men Prezidentimiz bayon qilgan barcha ilmiy-dasturiy ishlar faqat va

Hozir har bir manfaatdor kimsa oʻz ishiga taalluqli, hisob-kitobli fikrini toza soʻz bilan ifodalab aytisa, foydasi yuz chandon ortadi. Lekin shu vaqlarda ilgari koʻp aytilgan narsalarni, fikrlarni dam-badam takror-takror, xuddi birinchi marotaba tilga olinayotganday yozaverish va aytaverish ajab antiqa odat tusiga kirdi. Matbuot, televideniye shunday oʻzlashtirilgan, siyqasi chiqqan soʻzlar, gaplar, oʻta mujmal, lanj mulohazalar bilan toʻlib yotibdi. Barcha sarlavhalar haddan ortiq bolaxonador. “Baxtsizlikning basharasiga qaragim kelmaydi, — deb yozishadi xonaki shoirlar. — Men baxt istayman!”. Sheʼr, fikr baxtsizlikning betiga tik, mardona qaray olmasa, unda insonparvarlik, mehr-oqibat qayda qoladi? Joʻn, hech narsaga arzimaydigan ezmliklarning ijtimoiy hayotimizdagi salmogʻi katta, balki toʻqson yetti foizdir.

Holbuki, yaxshi odam fazilatlaridan biri oʻz fikr tarzini tarbiyalash, loʻnda, maʼnoli, chiroyli soʻz yuritishdir. Kitobni onda-sonda oʻqisak ham koʻp oʻtmay esimizdan chiqarib yuboramiz, gʻozga qancha suzmasin, suv yuqmaydi. Oʻrislar bunday holatda “Kak s gusya voda” deydi.

Shuning uchun men bu sodda fikrlarim doirasini bilan kitobxon qalbiga endi yangi yoʻllar, yangi usullar topaylik demoqchiman.

YANGI YOʻLLAR QIDIRAYLIK

Oybek

Bola Oybek oʻsmir (oʻn ikki yashar, 1917-yil) chogʻidayoq kitobni mashʼal qilib, hech qoʻlidan qoʻymasdi. U shahar guzarlari, bozorlari, choynoxalarida tez-tez boʻlib turadigan oʻyin-kulgi, qiziqchiliklarga koʻp ham qiziqmas, aksinchak, bogʻlar, oʻtloqlarda muk tushib kitob oʻqirdi. Jadid ziyolilari bilan tanishar, Kerenskiy siyosatini astoydil muhokama qilardi. “Bizga aql ziyosi kerak”, degan soʻz miyasiga qayerdandir oʻrnashib qolgandi.

Muso Oybek erta, juda erta mashʼal boʻlgan ijodkor bola edi. Prezidentimiz yoshlarga qarata bayram kuni ajoyib bir soʻzni aytdi: “Yoshlikdagi harakat — bu kelajakdagi yutuq”.

Bu donishmand soʻzlar Oybekning oʻsmirlik chogʻlaridagi gʻayratiga toʻppa-toʻgʻri daxldor. Chunonchi, Choʻlpon, Qodiriyga ham tubdan tegishli. Hozirgi millionlab yoshlarga ham taalluqli. Buni tushungan, unga rioya qilgan albatta yutadi. Qani edi bu soʻzlar kexsa qovurgʻamga yozilib qolsa: banogoh akademik boʻlarmidim. Mashʼal Oybek! Suyukli Oybek!

Ikki Uygʻonishni boshdan kechirganmiz. Lekin barcha hikmatlarning onasi shudir. Men barcha insonlar taqdir oʻyinlarida buni yaqqol koʻraman.

Yoshlarining yaqin kelajakdagi vazifalari va sohalar aql-idrok bilan belgilab chiqilgan. Bu — hozirgi zamondagi tur realistic hujjatlardan biri! Koʻz oʻngimda gʻaroyib Sviftning xayoliga kelmagan fantaziylar voqelik epopeyasiga aylanayotgandek tuyuladi.

Ularining bari yaqin yillarda roʻyobga chiqishi uchun oʻn million navqiron Aql zoʻr berishi kerak. Aytishga oson! Shu tobdam Muso Oybek va Qodiriyning gʻayrati, shijoati ayni yoshlarimizga qoʻl kelgan boʻlardi deb oʻylayman.

Men Oybekning 1962-1963-yillarda yaratgan “Bolalik xotiralarim” kitobini juda yaxshi koʻrib qolganman. Dam-badam oʻqisam deb turaman. XX asr boshlaridagi Toshkentni sogʻinib oʻqiyman. Yoʻl, najot qidiringan aftodahol odamlarga quloq tutaman.

1917-yilda mashhur shoir Tavalloning yangi chiqqan kitobini (“Ravnaqlar islom”) izlab, Xadradagi kitob doʻkonidan topgan va soʻng odamlarga uni oʻqib berib yurgan Musoning gʻariba quvonchlariga hamroz boʻlaman.

Oybek guzarlarda yigʻilgan odamlarga, uyda, maktab, mahallalarda kitob oʻqib berar, uni tushuntirar, eshitganlar xoʻb zavqlanar, yayrab ketardi. Oybek jadidlar ketidan qolmasdi. Ular ilm-urfonga koʻzi ochilgan mashʼalday bolalar edi.



Oybekning 1917-yildagi rasmi.

Zulfiya

Kitoblarimni qidirayotgan edim. Orasidan tizzamga sangʻayib ketgan eski konvert tushdi. Ajablanib ochdim. Eski suratlar. “Milliy tiklanish”ning ilk sonlari. Bularni anchadan beri koʻrmagan, yodimdan koʻtarilgan edi.

Zulfiya opaning Oydin Hojiyevaga dastxat yozib taqdim etgan suratini koʻrib, koʻzimga yosh toʻldi. Noyob dastxat, noyob soʻz edi: “Oydinjon! Sheʼriyatning masʼud onlaridan xotira. Zulfiya. 1977”.

Zulfiya doim shogirdlarini yoniga jamlab, ularga sheʼr oʻqitar, oʻzi ham oʻqirdi. Zavq daryosiga gʻarq boʻlardi. Lablaridan goʻzal nimtabassum arimasdi. Goho sodda, nafs lutflar, fasilalar qilardi. Ular faqat Zulfiyaga xos fasilalar boʻlardi.



Odil Sharopov

Oʻsha konvertidagi ajoyib suratlardan biri Odil Sharopovning eski hovlisi eshigidan olingan. Oʻshanda azamat tarjimon Odil Sharopov yetimish besh yoshni nishonlagan, hamkasblarga ziyofat qilib bergan edi. U mashhur otliq diviziya qoʻmondoni Mirkomil Mirsharopovning tugʻishgan ukasi. Yonida noshirlar va tarjimonlar: Malik Rahmon, Yulqub Halimov, Qurʼonli ilk kitobat qilgan Aziz Boboxonov, Hasan Toʻrabekov, kamina. Odil aka oʻsha yetimishinchi yillarda Mixail Sholoxovning “Tinch Don”ini tarjima qilar, Hasan Toʻrabekov Stendalga berilib ketgan, men esa Fyodor Dostoyevskiy, Mopassan, Xemingvayning magʻzini chaqishga urinardim. Men yetimishinchi yillarning bu ziyoli kitobxonlarini hozirgi zamon yoshlari bilan qiyolasam, u zamonlar ertak boʻlib qolganday tuyuladi. Tarixiy, ertakdan chiqqan kitobxonlar...



“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyatda kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746. 34788 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrizab koʻchasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi. Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

OʻZA yakuni — 21:10 Topshirildi — 23:15